

### **3-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANISHI. O‘ZBEK FUTBOLCHILARINING MAMLAKAT VA XALQARO MUSOBAQALARDA ISHTIROK ETISH NATIJALARI.**

**AJRATILGAN SOAT-2**

**Asosiy savollar:**

- 1. O‘zbekistonda futbolni rivojlanishi.**
- 2. O‘zbek futbolchilarining mamlakat va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish natijalari.**

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** O‘zbek futbolining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. XX asrning boshida, 1912-yilning o‘zidayoq butun Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon shahri ushbu o‘yin bilan “kasallanib” bo‘lgan edi. Biroz vaqt o‘tib bunday jamoalar Samarqand, Toshkent va Andijon shaharlarida ham paydo bo‘la boshladi. O‘sha uzoq yillarda mamlakatimiz jamoalari o‘rtasida turli musobaqalar o‘tkazila boshlangan.

#### **1-asosiy savolning bayoni:**

1928-yil O‘zbekiston milliy terma jamoasi tuzilgan. Terma jamoa o‘sha yili Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq spartakiadasida qatnashdi. O‘tgan asrning 30-yillarida o‘zbek futbolchilari Norvegiya va Germaniya havaskor terma jamoalari ustidan g‘alaba qozonishgan.

1939-yildan O‘zbekistonning yetakchi jamoalari–“Dinamo”, “TODO”, “Spartak” (Toshkent) Sobiq Ittifoq Kubogi va “B” toifali jamoalar birinchiligida qatnasha boshladi.

1956-yil Toshkentda hozirgi kunga qadar o‘zbek futbolining eng muvvafoqiyatli va mashhur jamoasi – “Paxtakor” tuzildi.

1991-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi. Uch yil o‘tar-o‘tmas, 1994-yili O‘zbekiston Osiyo futbol konfederasiyasi (OFK) va Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA)ning to‘laqonli a’zosiga aylandi va jahonda bo‘ladigan barcha nufuzli musobaqalarda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi.

O'zbekiston milliy terma jamoasi 1994-yil Osiyo o'yinlari g'olibi sanaladi. Rustam Akramov boshchiligidagi terma jamoa final uchrashuvida Xitoy terma jamoasini 4:2 hisobida mag'lubiyatga uchratgan.

O'zbekiston Futbol Federatsiyasi musobaqalar o'tkazish faoliyatini professionallashtirish yo'lida 2009-yil O'zbekiston Professional Futbol Ligasi (PFL) tuzildi. Ushbu liga mamlakatimizda o'tadigan futbol bo'yicha Oliy va Pro liga musobaqalarini o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

Zamonaviy futbolda har qanday o'sish va rivojlanish birinchi navbatda huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. 2019-yil 4-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoni o'zbek futboli istiqboli sari muhim qadam bo'ldi deb ayta olamiz. O'tgan davr mobaynida farmonda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirildi va oshirilib kelinmoqda. Futbolni rivojlantirishda eng avvalo bolalar futboli, ommaviy futbol, seleksiya, iqtidorlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Xususan, maktablar futbol ligasi tashkil etilib, musobaqalar muntazam ko'rinishga keltirildi. Futbol maktablari o'rtasidagi Respublika miqyosidagi musobaqalar qamrovi oshdi. Minglab bolalar o'z orzulariga erishib, professional futbolga ilk qadamlar tashladi. Infratuzilmani yaxshilash, akademiyalar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha aniq va keng qamrovli ishlar qilindi. OFK va FIFA bilan hamkorlikda hududlarda yangi futbol maydonlari qurib bitkazildi va mavjudlari xalqaro standartlarga mos ravishda ta'mirdan chiqarildi. Futbolimiz tarixida ilk bor terma jamoalar uchun zamonaviy markaz barpo etish rejasi tasdiqlandi va qurilish ishlari boshlab yuborildi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati tomonidan futbolimizni ortga tortayotgan kelishilgan o'yinlar, nopok hakamlik, totalizator, yosh kichraytirish kabi illatlarni yo'q qilish yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Futboldagi faoliyatida faqatgina moddiy manfaatni ustun qo'yadigan, bunga erishishda har qanday nomaqbul yo'ldan qaytmaydiganlarga nisbatan qat'iy choralar ko'rilmoqda.

Jumladan, 2019-yilning aprel oyidan hozirga qadar O'FA maxsus Inspeksiyasi tomonidan kelishilgan o'yinlar hamda hakamlar bilan bog'liq holatlar bo'yicha 25 nafar hakam va inspektorlar, futbol klublarining turli lavozimlarida faoliyat yurituvchi 19 vakili, 8 nafar murabbiy hamda 62 futbolchi bilan surishtiruv ishlari olib borildi. Unga ko'ra, O'FA Etika qo'mitasining qarori bilan 7 nafar hakam (2 nafari FIFA referisi) futboldagi faoliyatidan chetlatildi. 15 nafar yordamchi hakamlar, 3 ta inspektor turli miqdordagi jarimalarga tortildi. Klublarning 11 vakili, 4 ta murabbiy, 27 nafar futbolchiga intizomiy jazo choralari qo'llanildi. Quyi liganing 4 ta klubi kelishilgan o'yinlar va totalizatorida qatnashgani isbotlangach, musobaqadan chetlatildi. Ayollar futbolida ham bunday holatlarga qarshi kurash keng ko'lamda davom ettirilmoqda. Halol o'yin tushunchasi yangi bosqichga chiqdi. O'zbekistonda so'nggi yillarda shubhali o'yinlar soni kamayganini OFK ham o'z hisobotlarida qayd etgani e'tiborga loyiq.

Aholining o'z sevimli sport turi bilan muntazam shug'ullanishi uchun ommaviy futbol turnirlari tashkil etildi. Xususan "DXX Kubogi" musobaqalari butun mamlakatimizning 300 mingga yaqin yoshlarini qamrab oldi va haqiqiy futbol bayramiga aylanib ketdi.

Bolalar-o'smirlar, ommaviy futbol va infratuzilma bilan bir qatorda, professional jamoalarimizning faoliyati ham tubdan o'zgardi. O'FA tasarrufidagi terma jamoalarimiz soni 10 tadan 19 taga yetdi. Ularning barchasi musobaqalarga to'laqonli yig'inlar orqali tayyorlanib, kuchli sparing sheriklar bilan muntazam o'rtoqlik o'yinlari o'tkazib kelishmoqda. O'tgan yilning o'zida o'quv-mashg'ulot yig'inlari soni 81 tani tashkil etdi. Jamoalarimiz 185 marta turli darajadagi uchrashuvlarda qatnashdi. Tajriba almashish maqsadida bir qancha xorijlik taniqli mutaxassislar terma jamoalarimizda hamda O'FA bo'linmalarida faoliyat olib borishni boshlashdi. Terma jamoalarga futbolchi yetishtirish mexanizmi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Futbolchilarni seleksiya qilish ishlari professional darajaga olib chiqildi va to'liqligicha murabbiylar shtabi tomonidan, sport prinsiplariga mos ravishda amalga oshirilyapti. O'FA rahbariyati tomonidan milliy terma jamoamiz va boshqa termalarga kuchli raqiblar topish vazifasi belgilandi, shu kunga qadar Osiyo,

Yevropa, Afrika, Janubiy va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ko‘zga ko‘ringan jamoalari O‘zbekiston terma jamoalariga raqiblik qilishmoqda.

So‘nggi uch yil davomida O‘zbekiston xalqaro musobaqalar o‘tkazish bo‘yicha Osiyo markazlaridan biriga aylandi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Qit‘amizning turli yosh toifalaridagi rasmiy musobaqalari, Osiyo chempionatlari, saralash o‘yinlari va Markaziy Osiyo mintaqasining o‘nlab turnirlariga mezbonlik qilindi. Ayniqsa, pandemiya va undan keyingi murakkab davrda O‘zbekiston har qanday darajadagi sport tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazdi. OFK tomonidan O‘FAGA bildirilayotgan ishonch tobora ortib bormoqda. Xalqaro musobaqalar mezbonligi orqali mamlakatimiz futbol infratuzilmasini yaxshilash, mutaxassislar malakasini oshirish, muxlislarga unutilmas futbol bayramini taqdim etishda katta natijalarga erishildi. Ayniqsa U23 Osiyo kubogi hamda U20 Osiyo kubogi musobaqalari yurtimiz sportida katta voqeaga aylandi. Bu orqali O‘FAning nufuzli xalqaro tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari yangi bosqichga chiqdi. FIFA, OFK va UEFA bilan qator yangi loyihalar muntazam ravishda amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

Sir emas, har qanday natija ortida mutaxassislarning professional faoliyati yotadi. O‘FA futbol tizimidagilarning aynan professional darajada ish olib borishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda. Futbolning barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan “Futbol mutaxassislarini tayyorlash markazi” tashkil etilishi bu yo‘ldagi muhim qadam bo‘ldi. Qolaversa, avvallari katta e‘tibor qaratilmagan sport tibbiyoti va reabilitatsiyasi kabi yo‘nalishlar yangi bosqichga olib chiqildi. O‘FA qoshida sport tibbiyoti qo‘mitasi tashkil etilib, futbolimizdagi eng og‘riqli nuqtalardan biri bo‘lmish vitaminizatsiya, sog‘lom ovqatlanish, zamonaviy tibbiy ko‘rikka ega bo‘lish kabi masalalarga ilmiy yondoshgan holda, tizim ishlab chiqishni yo‘lga qo‘ydi. Sportchilarning jismoniy holatini nazorat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar xarid qilinib, barcha terma jamoalarga biriktirildi.

Bugungi kunda ayollar futbolida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Turli yosh toifalarida terma jamoalar tashkil etilib, ular mintaqaviy turnirlarda ijobiy natijalar qayd etishyapti. O‘FA qoshida ayollar futboli bo‘limi va qo‘mitasi tashkil

etildi. Mutaxassislar futboli rivojlangan mamlakatlarda o'z tajribalarini oshirib qaytishmoqda.

Mahalliy turnirlarni yuqori saviyada o'tkazishga O'FA rahbariyati alohida e'tibor qaratyapti. Superliganing oxirgi mavsumi tarixdagi eng qiziqarli chempionatlardan biri bo'ldi va unda turli o'rinlar uchun kurash eng so'nggi turga qadar davom etdi. O'zbek klublari OFK litsenziyalarini olishda ham faollik ko'rsatib kelishmoqda. Nafaqat Superliga, balki Pro liga bahslari ham telekanallar orqali jonli efirda namoyish etildi. Chempionatlarga yirik kompaniyalar xomiylik asosda jalb etildi. O'zbekiston birinchilardan bo'lib VAR tizimini ishga tushirdi va hozirgi kunda ham milliy chempionat o'yinlarida muntazam qo'llamoqda.

## **2-asosiy savolning bayoni:**

Tizimli o'zgarishlar va yangi davrga qadamlar tashlanishi futbolimiz rivoji, kelajakdagi yutuqlar poydevori sifatida amalga oshirilyapti. Shu bilan birga, hozirning o'zida jamoalarimiz ijobiy natijalar ko'rsatishmoqda. Hususan, Temur Kapadze boshqaruvidagi Olimpiya terma jamoasining Osiyo kubogidagi yorqin o'yinlari muxlislarni stadionlarga qaytardi deyish mumkin. Final uchrashuviga qadar 23 yoshli jamoamiz barcha raqiblarini ishonch bilan mag'lubiyatga uchratib keldi va faqatgina hal qiluvchi uchrashuvda imkoniyatni boy berdi. Shunday bo'lsada, ushbu turnirdagi ishtirok ijobiy baholandi. Shu yilning mart oyida mamlakatimiz yana bir yirik turnir, 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogiga mezbon bo'ldi. Ushbu turnirning o'ziga hos tomoni, Jahon chempionati yo'llanmasini taqdim etishi edi. Yuqori saviyada o'tgan chempionatning eng quvonarli tomoni, unda bizning yoshlar birinchi o'ringa sazovor bo'lishdi. Final uchrashuvida terma jamoamizni qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurishi o'zbek futboli tarixidan joy oldi. Yosh futbolchilarimizda mana shunday xalqaro o'yinlar orqali o'ziga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda. Yaqin kelajakda Olimpiya o'yinlari va Jahon chempionati yo'llanmasi uchun kurashadigan futbolchilarimiz har qaysi raqib bilan munosib kurash olib bora olishiga muxlislar ham ishonch hosil qilishdi.

Albatta, futbolimizni yangi bosqichga olib chiqishda hali amalga oshiriladigan ishlar juda ko‘p. Butun dunyoda bo‘lgani kabi, yurtimizda ham OAV vakillari hamda futbol ommasi kechayotgan jarayonlarni sinchikovlik va talabchanlik bilan kuzatib boradi. Bu borada O‘FA shaffof tashkilot sifatida faoliyat olib borishi kerak. Eng muhimi, Prezidentimiz futbolga davlat darajasida e‘tibor qaratib, ishonch bildirdi va futbolimizning har jabhasini qamrab olgan yangi Qarorni imzoladi. Ushbu muhim hujjat futbolimiz rivoji uchun katta turtki bo‘lishi va kelajakdagi yangi g‘alabalarga poydevor bo‘lishiga ishonamiz.

**Server Jeparov** – 1982-yil 3-oktyabr kuni Toshkent viloyati Chirchiq shahrida tavallud topgan. 2008-yili Toshkentning “Bunyodkor” futbol klubi safida yorqin o‘yinlar namoyish etib, jamoasi bilan OChL yarim finaliga yetib borgan va OFK tomonidan “Yilning eng yaxshi futbolchisi” deb topilgan. 2011-yili ham hamyurtimiz qit’a miqyosida e‘tirof etildi. Bu bilan Server Jeparov Osiyoda ikki karra “Yilning eng yaxshi futbolchisi” bo‘lgan ilk o‘zbekistonlik futbolchi bo‘lib turibdi.

**Dostonbek Hamdamov** – 1996-yil 24-iyul kuni Toshkent viloyati Bekobod shahrida tavallud topgan. 2015-yili Toshkentning “Bunyodkor” klubi sharafiga himoya qilib o‘sha yili “Osiyoning eng yaxshi yosh futbolchisi” deb topilgan. Hindistonning Dehli shahrida Osiyo qit’asining 2015-yildagi eng yaxshilarini taqdirlash marosimida “Yilning eng yaxshi yosh futbolchisi” sovrini “Bunyodkor” futbolchisiga topshirilgan. Ushbu nominatsiyaning yakuniy uchlik ro‘yxatidan “qaldirg‘ochlar”ning yana ikki vakili, Zabihillo O‘rinboyev va Eldor Shomurodov joy olgandi. Hamdamov 2015-yili Yangi Zelandiyada o‘tgan U20 bo‘yicha Jahon chempionatidada O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi safida ajoyib o‘yinlar ko‘rsatib musobaqaning chorak finaligacha yetib borgan edi.

1994-yili Yaponiyaning Xirosima, Onomiti va Miyosi shaharlarida o‘tkazilgan XXII-yozgi Osiyo o‘yinlari hozirgacha yorqin xotiralar bilan yodga olinadi. Sababi ushbu musobaqada qatnashgan O‘zbekiston terma jamoasi chempionlikni qo‘lga kiritgan. O‘sha yillari terma jamoalar tarkibi uchun yosh chegarasi mavjud bo‘lmagan, (hozirgi kunda Osiyo o‘yinlari futbol baxslarida 23

yoshgacha bo‘lgan sportchilar qatnashish huquqiga ega) shuning uchun Osiyo o‘yinlari musobaqalari Osiyo kubokiga tenglashtirilgan edi. Bu musobaqadagi oltin medal afsuski milliy terma jamoamiz uchun hozirgi kungacha yagonaligini saqlab turibdi.

Hamyurtlarimiz “V” guruhida Saudiya Arabistoni, Malayziya, Gonkong va Tailandni mag‘lub etib, yuz foizlik natija bilan chorak finalga yo‘l olishdi. Ushbu bosqichda Turkmaniston ham yirik hisobda taslim etildi. 1/2 finalda vakillarimiz Janubiy Koreyani mag‘lubiyatga uchratishdi. Hal qiluvchi bellashuvda Xitoy ham dog‘da qoldirildi va jamoamiz bosh sovrinni yurtimizga olib keldi.



22-rasm. 12-Osiyo o‘yinlaridagi Futbol bo‘yicha milliy terma jamoa a‘zolari.

1987-yilda ta‘sis etilgan FIFA “Feyr-pley” sovrini yil davomida eng halol o‘yin ko‘rsatgan klub yoki tashkilotga topshiriladi. O‘zbekistonning turli yoshdagi terma jamoalari va klublari Osiyo futbol konfederatsiyasining 2012-yildagi musobaqalarida “Feyr-pley” qoidasi bo‘yicha eng ko‘p ball to‘plashdi. 2013-yil 7-yanvar kuni Shveytsariyaning Syurix shahrida O‘zbekiston futbol federatsiyasi prezidenti Mirabror Usmonov halol futbolni targ‘ib qilgani va unga amal qiladigan federatsiyaga topshiriladigan sovrinni qabul qilib olgan edi.

Klublar o'rtasida qit'amizning eng nufuzli musobaqasi bu shubhasiz – OChL. Ushbu musobaqada yurtimiz sharafigini ko'plab klublarimiz himoya qilishgan. Biroq hozircha chempion bo'lish hech kimga nasib etmadi. Toshkentning ikki jamoasi – “Paxtakor” va “Bunyodkor” ikki martadan yarim finalga qadar yetib borishgan. “Paxtakor” 2002-2003 yili ancha kuchli jamoalar bilan bir guruhdan joy olishiga qaramay, keyingi bosqichga o'tish uchun vakillarimiz Eronning “Persepolis”, Iroqning “Al Talaba” va Turkmanistonning “Nisa” jamoalari bilan kuch sinashgan va guruhda birinchi o'rinni qo'lga kiritgan edi.

Pley-offda hamyurtlarimiz Tailandning “Tero Sasana” klubiga ikki o'yin natijasiga ko'ra imkoniyatni boy berib qo'ygan hamda finaldan mosuvo qolishgandi.

2004-yili “Paxtakorchilar” Eronning “Zob Ahan”, Qatarning “Qatar SK” hamda Bahraynning “Riffa” klublari bilan guruhdan chiqish uchun kuch sinashgan. Birinchi o'rin bilan chorak finalga yo'l olgan “Paxtakor” BAAning “Al Vahda”sini ortda qoldirib, yarim finalda Janubiy Koreyaning “Sonnam Ilxva Chxunma” klubi to'sig'idan o'ta olmay musobaqadagi yurishini to'xtatgandi.

2005-yili “Quruvchi” nomi bilan tashkil etilgan Toshkentning “Bunyodkor” futbol klubi qisqa vaqt ichida nom qozondi. Ichki chempionatda yetakchilikni qo'lga oldi. Xalqaro maydonda ham shov-shuvlarga sababchi bo'ldi. Ayniqsa, OChLdagi debyut ishtirokning o'zidayoq yarim finalgacha yetib bordi.

2008-yili ancha murakkab guruhidan joy olgan “qaldirg'ochlar” Saudiya Arabistonining “Al Ittihad”, Eronning “Sepaxon” va Suriyaning “Al Ittihad” jamoalari bilan bellashib, “o'lim guruhi”da birinchi o'rinni egalladi.

Chorak finalda Eronning yana bir klubi “Saypa” taslim etildi. Yarim finalda esa Avstraliyaning “Adelaida Yunayted” jamoasiga qarshi ikki uchrashuv natijasida ko'ra finalga chiqa olishmadi.

“Bunyodkor” 2012-yili “o'lim guruhi”dan yana omon chiqishdi. Avstraliyaning “Adelaida Yunayted”, Janubiy Koreyaning “Poxang Stilers” va Yaponiyaning “Gamba Osaka” klublari orasida ikkinchi bo'ldi.

Pley-offda Janubiy Koreyaning “Sonnam Ilxva Chxonma”si mag'lub etildi. Chorak finalda ham “Adelaida Yunayted” bilan kuch sinashgan “bunyodkorchilar”



avvalgi yarim final alamini olishdi. Keyingi bosqichda esa Janubiy Koreyaning “Pohang Stillers” jamoasiga imkoniyat boy berildi.

Osiyoda ikkinchi raqamli musobaqa hisoblangan OFK kubogi bir marta yurtimizga keltirilgan. Bu 2011-yili yuz bergandi.

Hindistonning “Dempo”, Livannig “Al Ansar” va Yamanning “Al Tilyal” klublarini mag‘lubiyatga uchratgan “Nasaf” guruhda yuz foizlik natija bilan birinchi o‘rinni egalladi.

Pley-offda Iordaniyaning “Al Faysali” jamoasi taslim etildi. Chorak finalda Tailandning “Chonburi”, undan keyingi bosqichda Iordaniyaning “Al Vixdat” klublari taslim etildi.

Finalni o‘z uyida o‘tkazgan qarshiliklar Quvaytning “Al Quvayt” jamoasini bitta to‘p farqi bilan yutib, bosh sovrin sohibiga aylanishgan (23-rasm). Ushbu muvaffaqiyat “Nasaf” tarixida yangi sahifa ochgandi.



23-rasm. OFK kubogi – 2011 egasi Nasaf klubi.

2003-yil Birlashgan Arab Amirliklarida o‘tkazilgan 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatida Viktor Borisov murabbiyligidagi O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi ham ishtirok etgan. Ushbu mundialda debyut qilgan hamyurtlarimiz “B” guruhida Argentina, Ispaniya va Mali terma jamoalariga

qarshi baxs olib borishgan. Yakunda uchchala o'yindaham mag'lubiyatga uchrab guruhda qolib ketishgan. Bu mamlakatimiz uchun terma jamoalar tarixidagi birinchi jahon chempionati edi.

2008-yili 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Saudiya Arabistoni mezbonlik qilgan turnirda Ahmadjon Ubaydullayev shogirdlari hal qiluvchi final bahsda BAAGA 1:2 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ygan. Kenja To'rayev terma jamoamiz safida gol urgan bo'lsa, amirliklar tarkibida Ahmad Halil dubl qayd etgandi. O'sha musobaqada O'zbekiston yoshlar terma jamoasi "Fair Play" sovrini sohibiga aylangan hamda 2009-yilda Misrda o'tkaziladigan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgan.

Misrdagi U-20 toifasidagi JCH-2009ga Ahmadjon Ubaydullayev boshqaruvida borgan O'zbekiston yoshlar termasi "D" guruhida Gana (1:2), Urugvay (0:3) va Angliya (1:1) jamoalariga qarshi maydonga tushishgan va yakunda 3-o'rinni band etib, kurashni to'xtatgan edi.

2010-yil O'zbekistonda bo'lib o'tgan U-16 o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida Aleksey Yevstafeyev shogirdlari musobaqa finaliga chiqib. Shimoliy Koreyalik tengdoshlariga 0:2 hisobida imkoniyatni boy berdi. Chempionat natijalariga ko'ra Yevstafeyev shogirdlari ilk bor 2011-yilda Meksikada bo'lib o'tgan 17 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2011-yilgi jahon chempionatida O'zbekiston U-17 terma jamoasi 1-o'rin bilan guruh bosqichidan chiqib, chorak finalda Urugvay termasiga 0:2 hisobida imkoniyatni boy berdi.

2012-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida o'lib o'tgan 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida milliy terma jamoa asosiy vaqtda 1:1 hisobida durang o'ynagan. Yaponiya o'smirlarini penaltilar seriyasida 3:2 hisobida mag'lub etib, birinchi o'rinni egallaydi. Dilshod Nuraliyev boshqaruvidagi terma jamoamiz guruhda Suriya, Xitoy va hindistonlik tengqurlari bilan bahs olib borib, ikkinchi o'rinni egallagandi. Chorak finalda Janubiy Koreya, yarim finalda esa Eron taslim etilgandi.

Ushbu muvaffaqiyatdan so'ng 16 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Qit'a kubogini qo'lga kiritgan mamlakatning birinchi terma jamoasiga aylanadi. Bu orqali terma jamoamiz 2013-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tadigan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatiga yo'llanma qo'lga kiritgan.

Jahon chempionatida terma jamoamiz guruh baxslarida to'plar nisbati bo'yicha Marokash terma jamoasidan keyin, 7 ochko bilan ishonchli tarzda 2-o'rinni egalladi. Ammo 1/8 finalda jamoa kutilmaganda Gondurasga minimal 1:0 hisobida imkoniyatni boy berdi. Uchrashuv boshidanoq terma jamoa uchun omadsiz keldi: O'yinning 24 daqiqasida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi himoyachisi Akrom Komilov o'yindagi ikkinchi sariq kartochkasini olib, maydondan chetlatildi. O'yinning birinchi bo'limi 0:0 hisobida durang bilan yakunlandi.

Maydonda bir kishi ko'p bo'lib harakat qilgan Gonduras o'smirlar terma jamoasi ikkinchi bo'limda ko'proq hujum uyushtirishga erishdi. O'yinning 74-daqiqasida esa hisob ochildi. Gonduras o'smirlar terma jamoasi yarim himoyachisi Alvaro Velaskez chap qanotdan jarima maydoniga yorib kirib to'pni zahiradan maydonga tushgan Xorxe Boddenga etkazib berdi. Gonduraslik hujumchi esa bu imkoniyatdan unumli foydalandi va to'pni Sarvar Karimov qo'riqlayotgan darvozaga joylab qo'ydi.

O'yinning qolgan daqiqalarida Nuraliyev shogirdlari bir nechta hujumlar uyushtirishiga qaramay, hisobni tenglashtirishning uddasidan chiqqa olmadi.

Shu tariqa, Dilshod Nuraliyev bosh murabbiyligidagi O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi BAAda bo'lib o'tgan Jahon chempionati bahslarini nimchorak final bosqichida yakunlashgan.

Xitoy maydonlari ham biz uchun omadli hisoblanadi. Bu davlatni yorqin xotiralar bilan yodga olamiz. Chunki 2018-yili 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo chempionatida terma jamoamiz ajoyib o'yinlar namoyish etib, chiroyli g'alabalar evaziga shohsupaning eng yuqorisidan o'rin egallashgandi.

Chin yurtidagi musobaqada Ravshan Haydarov shogirdlari 1-turda Qatarga imkoniyatni boy berishdi. Ammo keyingi uchrashuvlarda g'alaba qozonib, ikkinchi o'rin bilan guruh bosqichini yakunlashdi.

Chorak finaldan ishtahasi ochilgan vakillarimiz Yaponiya darvozasiga javobsiz 4 ta gol urishdi. Yarim finalda Janubiy Koreyani 4:1 hisobida tor-mor etildi. Finalda esa Vetnamga qarshi bahs olib borgan hamyurtlarimiz qo'shimcha taymlarning oxirgi daqiqasida kiritilgan gol evaziga bosh sovrin sohibiga aylanganmiz (24-rasm). Ushbu o'yin muxlislarning xotirasidan "qorli final" nomi bilan saqlanib qolganligi aniq.



24-rasm. "Qorli final" nomi bilan yodda qolgan O'zbekiston Vetnam baxsi.

2023-yilda FIFA U-17 Jahon chempionati 9-marta o'smirlar o'rtasidagi xalqaro futbol turniri 2023-yil 10-noyabrdan 2-dekabrgacha Indoneziyada o'tkazildi. Guruh bosqichida terma jamoamiz Maliga imkoniyatni boy berdi (0:3), Kanadani esa mag'lubiyatga uchratdi (3:0), Ispaniya bilan esa durang (2:2) o'ynab, 4 ochko bilan "B" guruhida uchinchi o'rinni egalladi. Har bir guruhdan birinchi va ikkinchi o'rinni olgan va uchinchi o'rinni egallagan to'rtta eng yaxshi jamoa, jumladan, O'zbekiston ham Jahon chempionatining 1/8 final bosqichiga yo'llanma

oldi. Pley offning 1/8 final bosqichida Angliya terma jamoasiga qarshi maydonga tushgan o'smirlarimiz sensatsion tarzda 2:1 hisobida g'alaba qozonishdi. E'tiborli jihat Angliya terma jamoasi safida "Chelsi" klubining 5 nafar, "Manchester Siti"ning 4 nafar, "Sautgempton"ning 3 nafar va "Arsenal"ning 2 nafar futbolchisi ishtirok etgan edi. Yarim final uchun kurashda Fransiya 0:1 hisobida imkoniyatni boy berib qo'yishdi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekiston futbolida qanday eng muhim o'zgarishlar amalga oshirildi?
2. O'zbekiston futbol terma jamoasining Osiyo miqyosidagi eng katta yutug'i deb nimani atash mumkin?
3. Yosh futbolchilarni tayyorlash tizimi (akademiyalar, sport maktablari) bugungi kunda qanday natijalar bermoqda?
4. O'zbekiston chempionati — Oliy ligada so'nggi yillarda raqobatbardoshlik qanchalik oshgan?
5. O'zbekiston futbolchilari Evropaga chiqishi uchun qanday omillar talab etiladi?
6. Osiyo Kubogi musobaqalarida O'zbekiston terma jamoasi nega hali finalga chiqmagan, bunga qaysi omillar ta'sir qilmoqda?
7. O'zbekiston ayollar futbolining rivojlanishida so'nggi yillarda qanday ijobiy siljishlar kuzatilmoqda?
8. Legionar futbolchilar sonining ko'payishi mahalliy chempionat sifatiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
9. "Paxtakor", "Bunyodkor", "Nasaf", "Navbahor" kabi klublarning Osiyo Chempionlar ligasidagi ishtiroki O'zbekiston futboli imijiga qanday ta'sir qilgan?
10. O'zbekiston futbolida infratuzilmani (stadionlar, akademiyalar, tayyorgarlik bazalari) modernizatsiya qilish qanchalik samarali bo'lmoqda?

### **ADABIYOTLAR:**

1. R.I.Nurimov, Futbol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. Ch.: 2022.
2. R.A.Akramov, Futbol. Darslik T.: 2006.



3. Sh.X.Isroilov, Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). Darslik T.:2015.
4. Sh.X. Isroilov, Z.R. Nurimov, Sh.U. Abidov, S.R. Davletmuratov, A.A. Karimov, Sport va harakatli o'yinlar (Futbol). Darslik T.: 2017.
5. R.I.Nurimov, (Futbol). Darslik T.: 2015.
6. Теория и методика футбола: учебник / под общ. ред. В. П. Губы и А. В. Лексакова. – М.: “Спорт”, 2015. – 568 с.
7. Afc asian cup history book. UAE.: 2019.
8. theifab.com
9. fifa.com
10. afc.com
11. pfl.uz
12. ufa.uz

## **GLOSSARIY**

1. **O'zbekiston futboli** – O'zbekistonda futbol sportining rivojlanishi va faoliyati.
2. **Terma jamoa** – Mamlakatni xalqaro musobaqalarda vakillik qiladigan futbolchilar jamoasi.
3. **Oliy liga** – O'zbekistondagi eng yuqori professional futbol ligasi.
4. **Paxtakor** – Toshkentning mashhur professional futbol klubi.
5. **Bunyodkor**– O'zbekistonning nufuzli futbol klubi, xalqaro musobaqalarda qatnashadi.
6. **Nasaf** – Qarshidagi professional futbol klubi, Osiyo Chempionlar ligasida ishtirok etadi.
7. **Navbahor** – Namangandagi professional futbol klubi.
8. **Osiyo Chempionlar ligasi (AFC Champions League)** – Osiyo qit'asining eng nufuzli klub musobaqasi.
9. **Legionar futbolchi** – O'z mamlakatidan tashqarida faoliyat yuritayotgan futbolchi.

- 10. Futbol akademiyasi** – Yosh futbolchilarni professional tayyorlovchi maxsus muassasa.
- 11. Infratuzilma** – Stadionlar, trening bazalari, akademiyalar va boshqa sport ob'ektlari majmui.
- 12. Milliy chempionat** – Mamlakat ichidagi professional futbol musobaqasi.
- 13. Ayollar futboli** – Ayollar o'rtasidagi professional va havaskor futbol faoliyati.
- 14. Osiyo Kubogi (AFC Asian Cup)** – Osiyo qit'asining milliy jamoalari o'rtasidagi eng nufuzli musobaqa.
- 15. Olimpiya o'yinlari futboli** – O'zbekiston terma jamoasi ishtirok etadigan Olimpiya musobaqalari.
- 16. Tayyorgarlik bazasi** – Futbolchilarni mashg'ulot va tanlovlarga tayyorlash uchun maxsus markaz.
- 17. Raqobatbardoshlik** – Jamoalar va futbolchilarning o'zaro musobaqalarda kuchini oshirish qobiliyati.
- 18. Futbol infrastrukturasini modernizatsiya qilish** – Stadionlar va trening markazlarini zamonaviy talablar darajasiga keltirish.
- 19. Yoshlar futboli** – 15–23 yoshdagi futbolchilar o'rtasidagi musobaqalar va tayyorgarlik tizimi.
- 20. Xalqaro musobaqa** – O'zbekiston futbolchilari boshqa davlatlar yoki qit'alar jamoalari bilan o'tkazadigan o'yinlar.

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:**

**1. O'zbekiston mustaqillikdan keyin qachon FIFA a'zosi bo'lgan?**

- A) 1990
- B) 1992
- C) 1994
- D) 1996

**2. O'zbekiston terma jamoasi ilk marta Osiyo Kubogida qatnashgan yili qachon?**

- A) 1994
- B) 1996**
- C) 2000
- D) 2004

**3. O‘zbekiston Oliy ligasida faoliyat yuritadigan eng mashhur klublardan biri qaysi?**

- A) Lokomotiv
- B) Buxoro
- C) Paxtakor**
- D) Surxon

**4. O‘zbekiston futbolchisi jahon va Osiyo miqyosidagi xalqaro klublarda faoliyat yuritishi uchun nima kerak?**

- A) Faqat yosh bo‘lish
- B) Malaka va professional tayyorgarlik ✓**
- C) Milliy jamoaga kirish
- D) Oliy ligada 1 yil o‘ynash

**5. O‘zbekiston Osiyo AFC kubigida qaysi klub bilan katta muvaffaqiyat qozongan?**

- A) Lokomotiv
- B) Buxoro
- C) Nasaf**
- D) Surxon

**6. O‘zbekiston terma jamoasining Osiyo Kubogidagi eng yaxshi natijasi qaysi bosqichda?**

- A) Guruh bosqichi
- B) Yarim final
- C) Chorak final**
- D) Final

**7. O‘zbekiston ayollar futboli dastlab qaysi yilda rivojlana boshlagan?**

- A) 1988



B) 1992

**C) 1995**

D) 2000

**8. Legionar futbolchi nima degani?**

A) O‘z mamlakatida professional futbolchi

**B) Tashqi mamlakat klublarida o‘ynaydigan yoki tashqi mamlakatdan kelgan futbolchi ✓**

C) Milliy jamoa futbolchisi

D) Akademiyada o‘qiydigan futbolchi

**9. Futbol akademiyasining asosiy maqsadi nima?**

A) Faqat turnirlarga qatnashish

B) Moliyaviy foyda olish

**C) Yosh futbolchilarni professional tayyorlash ✓**

D) Stadion qurish

**10. O‘zbekiston futboli rivojlanishida infratuzilma modernizatsiyasining roli qanday?**

A) Faqat stadion ko‘paytirish

B) Milliy chempionatni bekor qilish

**C) Mashg‘ulot bazalari va stadionlarni zamonaviylashtirish ✓**

D) Faqat xalqaro musobaqalar o‘tkazish